

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

**№7 (3) 2023**

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

---

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

---

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ**

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SCP1342V3I7Y2023

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 7 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

#### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

#### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

### **Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

### **Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**  
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Usmonov Axrorjon Rustamjon o'g'li*  
AMALIY SAN'AT BILAN BOG'LIQ NOMODDIY MADANIY MEROSLAR ..... 9-15
- Зоҳидов Қобилжон Тоиржонович*  
ИЛК АРАБ-МУСУЛМОН ДАВЛАТ БОШҚАРУВИДА МАДИНА ШАҲРИНИНГ ЎРНИ ..... 16-20
- Siddiqov Mirshod Baxtiyorovich*  
SOVET HOKIMIYATINING QORAQALPOG'ISTON ASSRDA IJTIMOIIY TA'MINOT  
SIYOSATI ..... 21-26
- Хайназаров Баҳромжон Бахтиёрович*  
КАСПИЙОРТИ ВИЛОЯТИДА ТУБ БЎЛМАГАН АҲОЛИ ЭҲТИЁЖЛАРИ УЧУН ТАЪЛИМ  
ТИЗИМИНИНГ ЖОРИЙ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН  
(XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ) ..... 27-32
- Мансуров Музаффаржон Шарифжон ўғли*  
СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ЙИЛЛАРИДА МАДАНИЙ ТАДБИРЛАРНИНГ ТУРИЗМ ТАРҒИБОТИДА  
ТУТГАН ЎРНИ ..... 33-41
- Bobodustov Bobur Mirzaboyevich*  
ZARAFSHON DARYOSIDAGI SUV AYIRG'ICH TIZIMLARINI TA'MIRLASHGA ROSSIYA  
IMPERIYASI MA'MURIYATINING MUNOSABATI ..... 42-47
- Саидбобоева Гулзора Нематжонова*  
XX АСРНИНГ 30–50-ЙИЛЛАР ДАВРИЙ МАТБУОТ МАТЕРИАЛЛАРИ – РЕСПУБЛИКАНИ  
ЭЛЕКТРЛАШТИРИШГА ОИД МАНБА ..... 48-55

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Казаков Олим Сабирович*  
ЕТАКЧИЛИК ТАЪСИРИДА БОШҚАРУВНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ ..... 56-60
- Utkirov Abbos Meyliyevich*  
CHALLENGES IN IMPLEMENTING TQM IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS ..... 61-67
- Umronov Eldorbek Sodirovich*  
TURISTIK KORXONALAR DOIRASIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA  
RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI ..... 68-76
- Норбоев Аллаёр Исмоилович, Тулкинов Гайрат Кадилович*  
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И НАПРАВЛЕНИЯ МЕНЕДЖМЕНТА В РАЗВИТИИ МОЛОДЁЖНОГО  
ТУРИЗМА ..... 77-82
- Xolmurotov Fozil Saribayevich*  
MINTAQADA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGINI OSHIRISHDA QISHLOQ XO'JALIK  
MAHSULOTLARINI YETISHTIRUVCHI SUBYEKTLAR RO'LINI BAHOLASH ..... 83-91
- Худайназарова Дилором Хайруллаевна*  
ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ  
РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ..... 92-100

*Гойипназаров Санжар Баходирович*  
СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТНИ ЖОРИЙ ЭТИШ НАТИЖАСИДА МЕХНАТ БОЗОРИДАГИ  
ЎЗГАРИШЛАР .....101-110

*Baxtiyorov Asrorbek Azizjon o'g'li*  
BANK MENEJMENTI ASOSLARI, UNING IQTISODIY MOHIYATI .....111-119

### **09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

*Юлдашев Фаррух Абдурахманович*  
АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА ЭХТИЁЖ ВА МАНФААТЛАРНИНГ ЎЗАРО УЙҒУНЛИК  
ХУСУСИЯТЛАРИ .....120-126

*Тожибоев Сарвар Пулатжон ўғли*  
ДАВЛАТ ХИЗМАТИ ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ  
АСОСЛАРИ .....127-132

*Ismatov Shohruhbek Murod o'g'li*  
YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY DAVLAT BARPO ETISH VA UNING G'OYAVIY MAFKURAGA  
ASOSLARI .....133-137

*Abdullayev Temur Bobir o'g'li*  
TIL VA TAFAKKUR DIALEKTIKASINING BILISH JARAYONIDAGI ROLI .....138-143

*Islamov Kamol Tashkulovich*  
UYG'ONISH DAVRI DUNYOQARASHIDA DINIY VA DUNYOVIY YONDASHUVLAR  
NISBATI ..... 144-150

### **10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Isanova Feruza Tulqinovna*  
O'ZBEK TILI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARINING FUNKSIONAL  
XUSUSIYATLARI .....151-160

*Ro'ziyev Elbek O'rol o'g'li*  
AMIR TEMUR VA TEMURIY HUKMDORLAR YORLIQLARIDA SIYOSIY NUTQ SHAKLLARINING  
QO'LLANILISHI .....161-167

*Мухамедова Феруза Баходир кизи*  
ФОРМИРОВАНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ СИСТЕМЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ  
А. КИМА.....168-174

*Abdullayev Ikramjon Xashimdjanoich*  
TILSHUNOSLIKDA SO'Z VA SO'Z TURKUMLARI: TADQIQI VA TAVSIFI .....175-180

*Tagayeva Sayyora Ulashovna, Inoyatillo Ozoda*  
FIZIKA FAKULTETI TALABALARIGA NEMIS TILINI O'QITISHDA INNOVATSION  
METODLARINING QO'LLANILISHI .....181-185

*Egamberdiyeva Mohidil Gulomjon qizi*  
MADANIYATLARARO MULOQOTDA NUTQIY ETIKETNING ANTROPOSENTRIK  
TADQIQI .....186-190

## **12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР**

- Жавлиев Нурали Баходирович*  
МАЪМУРИЙ-ҲУҚУҚИЙ НИЗОЛАР ТУШУНЧАСИ ВА МАЗМУН-МОҲИЯТИ .....191-195
- Узакова Гўзал Шариповна*  
БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ МАҚСАДЛАРИГА ЭРИШИШДА СУВ РЕСУРСЛАРИДАН  
ОҚИЛОНА ФОЙДАЛАНИШ (ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ).....196-204
- Usmanov Alisher Tolmasovich*  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MA'MURIY HUQUQBUZARLIK TO'G'RISIDAGI ISHLARNI  
YURITISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBI: MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR .....205-213
- Авезова Элеонора Парахатовна*  
РАВНОЕ ПРАВО ГРАЖДАН НА ПОСТУПЛЕНИЕ В ГОСУДАРСТВЕННУЮ ГРАЖДАНСКУЮ  
СЛУЖБУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .....214-218
- Мукумов Бобур Мелибой угли*  
ОЦЕНКА РЕГУЛИРУЮЩЕГО ВОЗДЕЙСТВИЯ ПРОЕКТОВ НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫХ  
АКТОВ ПО ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ТЕХНОЛОГИЙ БЛОКЧЕЙН. СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ  
.....219-224
- Туракулова Назира Абдишукуровна*  
СТАРТАП ЛОЙИҲАЛАРИНИ ТУЗИШ ВА МОЛИЯЛАШТИРИШ ТАРТИБИ:  
ДАВЛАТ ВА НОДАВЛАТ НУҚТАИ НАЗАРИДАН .....225-232

## **13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

- Хўжамкелдиев Гафур Султон ўгли*  
СПОРТ МАШҒУЛОТЛАРИ ЖАРАЁНЛАРИДА ТИКЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ .....233-237
- Aziz Hasanovich Rajabiy*  
BO'LAJAK VOKAL O'QITUVCHILARINING INTELLEKTUAL-IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINI  
RIVOJLANTIRISH .....238-242
- Malikova Sevar Samatovna*  
BO'LAJAK XOR RAHVARLARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH .....243-246
- Васильченко Ольга Анатольевна*  
ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНО-ХОРОВЫХ НАВЫКОВ .....247-251
- Хојитуроdова Маhлиyoхон Kenjavoy qizi, Inomov Faxriddin O'rmonjonovich*  
AN INNOVATIVE APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' MOVEMENT SKILLS  
AND COMPETENCIES IN PHYSICAL EDUCATION CLASSES .....252-257
- Асадуллаева Наргиза*  
БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ФАОЛ ФУҚАРОЛИК КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ  
МУСТАҲҚАМЛАШГА ҚАРАТИЛГАН ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ЖАРАЁННИ  
РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ .....258-265
- Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi*  
BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT MUTAXASSISLARINING PEDAGOGIK MADANIYATI VA  
KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK MODEL I .....266-272

<i>O'ktamova Navruza Botir qizi</i> BO'LAJAK JURNALISTLARGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA SOTSIOLINGVISTIK KOMPETENSIYANI TAKOMILLASHTIRISH (SIYOSIY-IJTIMOIIY MATNLAR MISOLIDA) .....	273-277
<i>Humonjonov Shoxzodbek Dilshodjon ўғли</i> ОЛИЙ ТЕХНИКА ТАЪЛИМИДА МЕХНАТ МУҲОФАЗАСИ ВА ТЕХНИКА ХАВФСИЗЛИГИ ҚОИДАЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ЭЛЕКТРОН МЕТОДИК АСОСЛАРИНИНГ ИЛМИЙ АҲАМИЯТИ .....	278-287
<i>Xuramov Ilxom Panjiyevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN ISLOHOTLARNI JADALLASHTIRISH VA KASBIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH .....	288-292
<i>Azizbek Umarov</i> MEDIATA'LIM – TALABALARNING MEDIA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN FAN TARMOG'I SIFATIDA .....	293-299
<i>Saidova Zilola Gadoymurodovna</i> TA'LIM INTEGRATSIYASINING AYRIM MASALALARI .....	300-307
<i>Raxmonova Gulrux Ulashevna</i> O'ZBEK XALQINING MILLIY HARAKATLI O'YINLARIDAN JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI .....	308-312
<i>Boynazarova Sayyora Ruzikulovna</i> BIOLOGIYA O'QITUVCHISI KASBIY KOMPETENSIYALARI VA KOMPETENTLIGINI MONITORING QILISHNING MAVJUD METODIKASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI .....	313-317
<i>Shermuhammadov Bahodirjon, Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi</i> MDH OLIMLARI TOMONIDAN CHET TILLARNI O'RGANISHDA UCHRAYDIGAN XATOLAR MAVZUSIDA OLIB BORGAN TADQIQOTLAR TAHLILI .....	318-323
<i>Abdusalimova Nargizaxon Olimjon qizi</i> MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB FIZIKA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING AFZALLIKLARI .....	324-329
<i>Shafiyeva Elnara, Murotmusaev Komiljon Buribaevich</i> THE CHARACTERISTICS OF MENTAL HEALTH IN ELDERLY PEOPLE .....	330-349

09.00.00 – Фалсафа фанлари

**Abdullayev Temur Bobir o'g'li**  
2-bosqich tayanch doktoranti  
O'zbekiston Milliy universiteti  
[tamuurdo@gmail.com](mailto:tamuurdo@gmail.com)

### **TIL VA TAFAKKUR DIALEKTIKASINING BILISH JARAYONIDAGI ROLI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada falsafiy tadqiqotlarda til va tafakkur dialektikasi, til falsafasining rivojlanish bosqichlari, bilish jarayonidagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, tafakkurning til shakllari, uning predmet sifatida ifoda etish ko'rinishlarini ham tafakkurning o'zi bilan tenglashtirilishi yoritilgan. Tafakkurning til orqali amalga oshirilishi, ya'ni butkul yangi voqelikka – moddiy olamning ijtimoiy-amaliy o'zgartirilishi haqida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** til, tafakkur, dialektika, bilish jarayoni, ong falsafasi, munozara, ratsionalizm, refleksiya, semiotika.

---

**Abdullaev Temur Bobir ugli**  
The 2st year Doctoral Student (PhD)  
National University of Uzbekistan

### **THE ROLE OF LANGUAGE AND DIALECTICS OF THOUGHT IN THE PROCESS OF COGNITION**

**Abstract.** This article reveals the dialectic of language and thinking, the stages of development of the philosophy of language, the significance of the process of cognition in philosophical research. Linguistic forms of thinking, forms of its expression as an object, equating of thinking itself are also distinguished. The realization of thinking through language was discussed, that is, a completely new reality - the socio-practical transformation of the material world.

**Key words:** language, thought, dialectics, cognitive process, philosophy of consciousness, discussion, rationalism, reflection, semiotics.

---

**Абдуллаев Темур Бобир углы**  
2-й курс базового докторанта  
Национальный университет Узбекистана

### **РОЛЬ ЯЗЫКА И ДИАЛЕКТИКИ МЫСЛИ В ПРОЦЕССЕ ПОЗНАНИЯ**

**Аннотация.** В данной статье раскрываются диалектика языка и мышления, этапы развития философии языка, значение процесса познания в философских исследованиях. Также выделяются языковые формы мышления, формы его выражения как предмета, приравнивание самого мышления. Обсуждалась реализация мышления через язык, то есть совершенно новая реальность - социально-практическое преобразование материального мира.

**Ключевые слова:** язык, мысль, диалектика, познавательный процесс, философия сознания, дискуссия, рационализм, рефлексия, семиотика.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I7Y2023N18>

**Kirish.** Falsafiy fikrlar tarixiga nazar tashlasak, bilish jarayoni, uning vujudga kelish bosqichlari, mazkur jarayonda til va tafakkur dialektikasining beqiyos o'rnini bor. Dialektika atamasini birinchi marotaba Suqrot ishlatgan. Faylasuf bu so'zdan foydalanish bilan samarali bahslashish, fikrlar qarama-qarshiligi orqali haqiqatga erishishga qaratilgan muloqot olib borish mahoratini ifodalagan. Dialektikaning aynan shu talqiniga sofistlar ham amal qilganlar. Ular o'ziga xos inkor dialektikasini rivojlantirib, tinimsiz bahs-munozara muhitida haqiqatning tagiga yetishga to'xtovsiz harakat qiluvchi, ziddiyatlarga to'la inson tafakkurini faol harakatga keltirganlar.

Qadimgi sofistlar – Protogor, Gorgiy va boshqalar gnoseologiya va dialektik tafakkur tarixida o'chmas iz qoldirgan. Ular qarama-qarshiliklarga to'la, haqiqatga chanqoq inson tafakkurini faol harakatga keltirdi. Qadimgi sofistika naqadar subyektiv, «so'z o'yinlari»ga to'la bo'lmasin, ayrim oqilona jihatlarga ham ega edi. Ularning qatoriga o'z holicha tafakkurni ongli tadqiq etish; uning kuchi, qarama-qarshiliklari va odatdagi xatolarini tushunish; tafakkurning harakatchanligi va moslashuvchanligini rivojlantirish, unga dialektik tus berishga intilish; bilishda subyektning faol rolini qayd etish; bilish jarayonida so'z, til imkoniyatlarini tahlil qilishni kiritish mumkin.

Suqrot bilishning tasavvurlar, tushunchalarni taqqoslash, ta'riflash va qismlarga ajratish jarayonida haqiqatga erishish sifatidagi dialektik tabiatini birinchi o'ringa qo'ygan. Bunda u bilish va axloq, metod va axloqiylikning uzviy aloqasini qayd etadi. Har xil tushunchalar (yaxshilik, donishmandlik, adolat va shu kabilar)ning axloqiy mazmunini muhokama qilar ekan, Suqrot, Aristotelning so'zlariga ko'ra, induktiv dalillardan birinchi bo'lib foydalanib, umumiy ta'riflar bera boshladi.[1; 79-b.] Aristotel sababiy bog'lanishlarning rang-barangligi muammosini ilgari surib, dialektikani yanada rivojlantirgan. Uning to'rt sabab: moddiy, formal, harakatlantiruvchi va yo'naltiruvchi sabablar «Narsalar va hodisalar vujudga kelishiga sabab bo'luvchi omil (materiya, substrat) – moddiy sabab»; «narsaning mohiyatini belgilovchi omil – formal sabab»; «harakat asosi – harakatlantiruvchi sabab»; «biror narsani amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad – yo'naltiruvchi sabab» haqidagi ta'limoti ma'lum. Aristotel shakl va mazmun (materiya) dialektikasini tahlil qilishning o'z usulini taklif qilgan holda, narsalarning vujudga kelishi va ularning takomillashuvi shaklga bog'liqligini ochib bergan. Uning fikricha, Shakl o'z mohiyatiga ko'ra faol, materiya esa passivdir. Shakl – narsaning tashqi ko'rinishi, u dunyoning rang-barangligi va borlig'ini belgilaydi. [2; 110-b.]

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Adabiyotlar tahlilicha, Suqrotning faoliyatida dialog haqiqatga yetishning asosiy metodiga aylangan. Darhaqiqat, ilk mutafakkirlar o'z ta'limotlarining asosiy tamoyillarini uzil-kesil deb ilgari surgan bo'lsalar, Suqrot mumkin bo'lgan barcha nuqtai nazarlarning birortasiga ham oldindan qo'shilmasdan ularni tanqidiy tahlil qilishga uringan. Suqrotning antidogmatizmi, xususan, u ijobiy bilimga egalikka da'volardan voz kechganida ifodalangani; shu tufayli u faylasufni donishmandlikdan saboq beruvchi deb emas, balki boshqalarda haqiqatga intilishni uyg'otishga qodir inson deb hisoblagan.

Aflotun falsafasining oqilona mazmunini, munozaraga kirishish san'ati tashkil etib, borliq qarama-qarshiliklardan iborat. Shuningdek u yagona va ko'p sonli, abadiy va o'tkinchi, o'zgarmas va o'zgaruvchan, turg'un va harakatda deb hisoblagan. Uning fikricha, qarama-qarshilik jonda mulohaza yuritishga rag'batning zaruriy sharti, bilishning muhim tamoyilidir.

Qadimgi va o'rta asrlar falsafasida deyarli barcha zamonaviy fan sohalariga oid qarashlarni uchratish mumkin. Ong falsafasi sohasi ham bundan istisno emas va Sharq hamda G'arbning deyarli barcha falsafiy ta'limotlarida ushbu sohaga oid fikrlar bildirilgan. Lekin ushbu davr bilimlarining o'ziga xos jihati bu ushbu bilimlarning yaxlitligi va sakral ahamiyatga egaligi bilan belgilanadi. Aleksandr Makedonskiy yashirin bilimlarni barcha uchun oshkor etganlikda ayblaganida xatto Aristotel ham o'zini oqlashiga to'g'ri kelgan.

Hindiston ma'naviy-ruhiy an'analarida tillarni muqaddas (sanskrit) va kundalik (prakrit) toifalarga bo'lish amaliyoti mavjud bo'lgan. Inson haqidagi sirli bilimlar sanskrit tilida yozilishi kerak bo'lgan. Lekin bu til bugungi kunda ishlatilmaydi va uning o'rniga prakrit ishlatiladi. Bu tilda esa olam uni idrok etuvchi insonga bog'liq holda tasvirlanadi. Keyingi falsafiy maktab va ta'limotlarda antropomorfizm keskin tanqid ostiga olinadi. "Inson, - deb yozadi Ernst Kassirer, - doimo o'zi bevosita joylashgan muhitni olamning markazi deb bilishga va o'zining shaxsiy hayotini butun olam uchun namuna deb bilishga moyillik sezgan. Lekin endilikda u bunday nochor dunyoqarashni tashlashi, bunday qoloq va ayanchli fikrlash tarzidan voz kechishi kerak." [3; 469-b.] Lekin antropomorfizmda olamga inson ongi nuqtai nazaridan qaraladi. Bu bilish jarayonining eng muhim shartidir. Fikrimizcha, bunda barcha muammo ushbu atamaning turlicha talqin qilinishidir.

Ehtimol haqiqiy yo'l o'tmish haqidagi bilimlarni muvofiq tushunishdadir, lekin o'sha davr falsafiy matnlaridagi ruh va mazmuni qayta jonlantirishsiz ushbu vazifani amalga oshirish imkonsizdir. Hozirgi zamon va o'tmish orasida ko'rinmas chegara o'tgan bo'lib, bu chegaradan barcha ham oshib o'ta olmaydi. Bu ishga nomlari barchaga tanish bo'lgan, taniqli donishmand mutafakkirlar qodir bo'lgan. Buning mushkul jihati shundan iboratki, qadimgi matnlar o'z xarakteri va shakliga ko'ra har doim ham qat'iy ilmiylik me'zonlariga to'g'ri kelavermaydi va shu sababli ham odatda olimlarning diqqat markazlaridan chetda qoladi. Ushbu ma'noda boshqa xususiy fanlarga qaraganda falsafa nisbatan bu vaziyatda qulayroq maqomda joylashgan, chunki unda ham ilm-fan, ham inson ruhiyatining boshqa tajriba va malakalari to'planadi.

Falsafa – bu o'rinda meta fan bo'lib, u boshqa xususiy fanlar kabi tadqiqot doirasi nuqtai nazaridan cheklanmagan va unda nazariy masalalar nisbatan kengroq dunyoqarash va metodologik pozitsiyadan turib ko'rib chiqilishi mumkin.

Ochiq yoki yashirin tarzda qadimgi matnlardan o'rin olgan ong falsafasi haqidagi qarashlar biz uchun ulkan qiziqish manbasidir. Bu vaziyatning mushkul tomoni shundaki, bu bilimlarni shunchaki "mexanik" tarzda zamonaviy fan tiliga o'girish imkonsiz, zero o'tgan asrlar va mingyilliklar ichida insonlarning fikrlash tarzlari va tafakkurlari, tushunchalar apparati, ular qo'llaydigan metodologiya, ular oldilariga qo'yadigan vazifalar va tadqiqot maqsadlari tub o'zgarishlarga uchradi. Bu holatlarning barchasi jahon falsafasi tarixida inson ongi sohasida olib boriluvchi tadqiqotlardan olinuvchi natijalarga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yangi davr falsafiy an'analarida onglilik inson mavjudligining eng muhim mezonlaridan biri sifatida ko'rilgan. Keyingi davrlarda ushbu tadqiqotlar yanada kengroq ko'lamda olib borildi. Hozircha aytishimiz mumkinki, falsafiy bilimlar shakllanishining dastlabki

bosqichlaridanoq ontologiya, gnoseologiya va boshqa falsafa sohalari bilan birga inson ongi haqidagi o'ziga xos falsafiy tadqiqot sohasi shakllandi. Insonning o'z ongining mohiyatiga qiziqishiga sababchi bo'lgan eng birlamchi omillardan biri bu albatta insonning o'zini rivojlantirish va mukammallashtirishga intilishi bo'ldi va bu albatta insonning o'zi va o'z ongi haqidagi aniq va ravshan tasavvurga ega bo'lishsiz imkonsiz edi. Lekin, keyinchalik ma'lum bo'ldiki, ongni tadqiq etish vazifasi o'ziga xos bilish metodlarini qo'llashni talab qiladi va u oddiy tadqiqot predmeti bo'lishi mumkin emas. Shu sababli ham falsafa doirasida uni tadqiq etishga nisbatan turli-tuman yondashuvlar shakllandi.

Tahlillarga ko'ra, ingliz faylasufi Jon Lokk tug'ma g'oyalar haqidagi nuqtai nazarini ilgari surib, inson barcha bilimlarni tajriba, sezgilardan olishini ta'kidlaydi. Insonning ongi tug'ilganda toza taxtaga o'xshaydi. Hayot bu taxtaga o'z rasmlari – bilimlarini chizadi. Lokk Rene Dekart ratsionalizmiga qarshi chiqar ekan, sensualizmni shunday asoslashga harakat qildi. Dekartning tug'ma g'oyalar haqidagi qarashlarini tanqid qilar ekan, Lokk g'oyalar tug'ma bo'lganida, ular teng darajada go'dakka ham, katta odamga ham, telbaga ham, aqli raso odamga ham tushunarli bo'lur edi, deb qayd etadi. Aqlda ilgari sezgilarda mavjud bo'lmagan biron-bir narsa yo'q - Lokk asosiy tezisining mazmuni ana shunday. His-tuyg'ular tashqi narsalarning inson sezgi organlariga ta'siri natijasida yuzaga keladi. Tashqi tajriba shundan iborat. Ichki tajriba (refleksiya) esa aqlning o'z faoliyatini va uning namoyon bo'lish usullarini kuzatishidir. Biroq, ichki tajribani ratsionalizm ta'sirida talqin qilar ekan, Lokk aqlga tajribaga bog'liq bo'lmagan qandaydir g'ayritabiiy spontan kuch xosligini, refleksiya, tashqi tajribadan tashqari, mavjudlik, vaqt, son g'oyalarini yuzaga keltirishini ta'kidlaydi.

Jon Lokk aniqlik jihatidan bilimning uch turi: intuitiv, namoyish bo'luvchi va seziluvchi bilimni farqladi. Tomas Gobbsning til va tafakkur aloqasi haqidagi g'oyalarini rivojlantirib, Lokk semiotika tushunchasini belgilar va ularning bilishdagi roli haqidagi umumiy nazariya sifatida ilgari surdi. [4; 60-b.]

**Natija va muhokama.** Fransuz faylasufi Etyen Kondilyak o'zining «Inson bilimlari kelib chiqishi haqida tajriba» nomli asarida inson bilish qobiliyati kelib chiqishining quyidagi ko'rinishini tasvirlaydi. «Biz sezgidan boshlaymiz va ularni idrok etamiz. Keyin biz ayrim idrok etilgan narsalarni kuchliroq fahmlab yetamiz va bu e'tiborimiz markazida bo'ladi. G'oyalar o'zaro bog'lana boshlagan vaqtdan idrok etilgan narsalarni anglaymiz va o'zimizni shu anglangan narsalar mavjud bo'lgan kishi sifatida idrok qilamiz, bu esa xotirani tashkil etadi. Ruhiyatda xotira goh timsollanib, goh saqlanib, goh ularning faqat belgilari yodga kelishi bu tasavvur, mushohada, zehn, xotiradir, esga olishdir. Aynan tafakkur farqlaydi, taqqoslaydi, qismlarga ajratadi va tahlil qiladi, zero bu diqqatni boshqarishning turli usullaridir. Shu yo'lga amal qilish tufayli bundan hukm, muhokama, tushuncha shakllanadi, bularning natijasi aqlidir». [5; 428-b.]

Kondilyak fikriga ko'ra, g'oyalarning aql bilan aloqadorligi oldindan joriy etilgan ramzlar bilan aloqadorligi asosida sodir bo'lishi mumkin. Kondilyak til va tafakkur birligini anglab yetishga harakat qilib, tafakkur tilning paydo bo'lishi va taraqqiy etib borishi bilan yonma-yon ravishda vujudga keladi va rivojlanadi, deb faraz qilgan.

Til va tafakkur o'zaro bir-biriga bog'langan murakkab hodisa. Biroq bu aloqadorlikning xarakteri adabiyotlarda turli xil tarzda talqin qilinadi. Bu tafakkurning umuminsoniy xarakterini, ya'ni yer yuzida yashovchi barcha insonlar uchun universal – tushunchali tuzilishini inkor etishga olib boradi. Agar turli xalqlarning tillari har xil bo'lsa, u holda nemis

faylasufi Vilgelm Gumbolt ta'rifi bo'yicha, tafakkurning barcha xalqlar uchun bir xil tuzilishi mumkin emas. Lekin amaliyot tillardagi tafovutlarga qaramay, barcha xalqlar uchun tushunchaviy tafakkurning birligini ko'rsatdi.

Tasavvurlarning oddiy, timsoliy shakllari Gegel, Gusserl, Freyd, Losev, Baxtin va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, timsoliy shakllarning yuzaga kelishi insoniy munosabatlar bilan taqazolanadi. A.F.Losev nuqtai nazaridan, sodda simvolik obrazlarning yuzaga kelishi muayyan qonuniyatga ko'ra sodir bo'ladi. Timsol sifatida xizmat qiluvchi va o'sha timsolning ostida yotuvchi mazmun, agar ular bir-biriga qarshi bo'lsa, ayniylashtirilishi mumkin. Ular substratlariga ko'ra turlicha, mazmunga ko'ra esa ayniy bo'ladi. "Timsol – bu anglatuvchi va anglanuvchining uchrashuv nuqtasi bo'lib, ular hech qanday umumiy jihatga ega bo'lmaydi, lekin ayni paytda boshqa narsani anglatib kelishadi." [6; 266-b.] Timsoliy shakllarning yuzaga kelishini tadqiq etish davomida A.Losev ko'pincha Fyodr Dostoyevskiy asarlariga murojaat qiladi. Turli vaziyatlardagi muloqot misollarida u shu paytgacha anglanuvchi va anglatuvchining bir-biri bilan nomutanosib bo'lganini, lekin qaysidir paytda ular birlashishini va yashirin bo'lgan narsa o'z ifodasini topib, boshqacha tusda namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Fikrimizcha, bu insonlar orasida sodir bo'luvchi munosabatlar oqibati sifatida sodir bo'ladi. Sodda timsoliy shakl bilan insonlar orasida sodir bo'luvchi munosabatlar ifodalanishi mumkin. Sodda timsoliy shaklning tasodifiy xarakteri o'sha timsol anglatuvchi munosabatning ham tasodifiy xarakterda ekanini ko'rsatadi. Tasavvur shakllarining rivojlanmagani munosabatlarning rivojlanmaganidan dalolat beradi va aynan shu insonlarning o'zlarining chinakam munosabatlaridagi tushunmovchiliklarining sababi bo'lishi mumkin.

XX asrning 80-yillari o'rtalarida kognitiv psixologiyaning kelgusi taraqqiyoti mustahkam ilmiy asoslarga tayanishi lozimligi ayon bo'ldi. Barcha tadqiqotlarda, jumladan evolyutsionizm vakillari tadqiqotlarida ham til tafakkurning asosiy vositasi sifatida ko'rila boshlandi. AQShlik olim Jerom Bruner ijtimoiy kognitiv jarayonning individual fikrlash aktlaridan birlamchi ekanini tan olgan dastlabki tadqiqotchilardan edi. Bu ikkinchi kognitiv inqilob uchun zamin hozirladi. Bu yerda ushbu jarayonlarning L.S.Vigotskiy psixologiyasi bilan aloqador ekanini ko'rish mumkin.

Ikkinchi kognitiv inqilob tarafdorlari fikriga ko'ra, mental hodisalar – bu insonlar (agentlar) tomonidan mahalliy norma va kelishuvlarga asosan yaratiluvchi va boshqariluvchi individual va ijtimoiy timsoliy obrazlar va belgilar oqimidan boshqa narsa emasdir. Ushbu g'oya asosida psixologiyani rivojlantirish uchun tabiiy tillar tushunchasini yanada chuqurroq tahlil qilish va uning kundalik hayotda qanday qo'llanilishini o'rganish talab qilinardi. Bularning barchasi keyinchalik ilmiy psixologiyaning tagqurmalariga aylanib, xotira, qaror qabul qilish, hisob-kitob, tasniflash kabi kategoriyalar qatoridan o'rin oladi. Insonlar kognitiv masalalarni hal qilishda mavjud timsoliy resurslardan foydalanishadi. Individning shaxslararo timsoliy va amaliy munosabatlarga kirishishi natijasida shakllanuvchi xususiyat "malaka" deb atalishi mumkin. Nima bo'lmasin, fikrlash mexanizmi individ tomonidan anglangan, ixtiyoriy bo'lishi kerak ekani ilgari surildi. Bunda anglanilgan barcha narsalarning o'ziga xos xususiyati irodalilik, yoki intensionallik hisoblanadi.

Lisoniy voqelikni ontologik, gnoseologik, akseologik, prakseologik nuqtai nazardan tahlil qilish til falsafasi deyiladi. [7; 14-b.] Gnoseologik muammolardan biri sifatida tilning kelib chiqishi va mavjudligi, uning tafakkur bilan o'zaro aloqadorligi, jamiyat hayotidagi roli

ko'tariladi. Til – bu axborotni saqlash, uzatish, shuningdek, inson faoliyatini boshqaruvchi vosita sifatida xizmat qiluvchi belgilar tizimi hisoblanadi Tilning obyekti esa atrofdagi cheksiz olamdir. Olam cheksiz, til esa cheklangan, chunki u insonlarning bilish qobiliyati, salohiyati, imkoniyati, sharoiti va boshqa qator omillarga bog'liq. Bu jarayonlarda til bizning tafakkur doiramizni cheklamaydi, bizga olamni bilishda to'la erkinlik beradi. Biz olamni tildan uzib faraz qila olmaymiz. Til yordamida biz haqiqatni yolg'ondan farqlaymiz.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, til va tafakkur birligi nafaqat tilga tegishli ayrim masalalarni, balki muayyan tillar va til shakllarini, til va millat, til va madaniyat, til va inson, til va jamiyatning o'zaro bog'liqligi umumiy qonun va qoidalar asosida tahlil qiladi. Til va tafakkur birligi jamiyat kabi qadimiy hodisa hisoblanadi. Darhaqiqat, tafakkur va til bir-biri bilan uzviy bog'langan, ularni bir-biridan ajratish zaruriyati nafaqat yo'q, balki bunday urinishlarning o'zi xato hisoblanadi. Til va tafakkur insonning eng muhim xususiyati sifatida ijtimoiy amaliyot samarasi hisoblanadi va ushbu amaliyot asosida taraqqiy qiladi.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Шермухамедова Н.А. Гносеология - Билиш назарияси. – Тошкент: Ношир, 2008. – Б.79.
2. Шермухамедова Н.А. Фалсафа: ўқув услубий мажмуа /. –Тошкент: «NOSHIR», 2012. – Б.110.
3. Кассирер Э. Опыт о человеке. - М., 1998. - С. 469.
4. Локк Дж. Избранные философские произведения. В 2-х т. Т. 1. – М.: АСТ, 1967. – С-60.
5. G'arb falsafasi. –Toshkent: «Sharq», 2004. – В.428.
6. Лосев, А.Ф. Философия. Мифология. Культура / А.Ф. Лосев. - М.: Политиздат, 1991. С.266.
7. Хоназаров Қ. Глобаллашув ва тил фалсафаси. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2009. – 14 б.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 7 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).